

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “AL- UNMUZAJ” ASARI ISM KO‘PLIK SON KATEGORIYASINING YORITILISHI.

TOSHPULOTOVA NAFISA NEMAT QIZI

Samarqand davlat Chet tillar institutiYaqin sharq tillari kafedراسي 2- kurs magistranti

E-mail:Ssama6906@gmail.com

Anotatsiya

Maqolada arab tili grammatikasida yuksak maqomga ega bo‘lgan alloma Mahmud Zamaxshariyning “Al- Unmuzaj” asarida ko‘plik son kategoriyasi ismga oid so‘zlar bilan ishlatilishi xususida batafsil bayon qilingan.

Tayanch iboralar: *sarf, nahv, ism,-ani,-yni,*

Annotation

This article provides an in-depth account of the use of plural numeral system with noun in the work of “Al Unmuzaj” by Makhmud Zamakhshari, who is a prominent scholastic figure in arabic grammar.

Basic phrases: morphology, syntaxis, noun, -atun, -una.

Аннотация

В этой статье анализируется использование категории много числа существительными в “Аль-Унмузадж” Махмуда Замахшари, ученого с высоким статусом в арабской грамматике.

Ключевые слова: морфология, синтаксис, имя существительное, -атун, -уна.

Abulqosim Mahmud Az-Zamakhshariyning arab tilida yaratgan asarlari nafaqat arab dunyosi, balki, ajamda ham ahamiyatga molik asar bo‘ldi. Shunday asarlaridan biri arab tilini oson o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun yozgan muxtasar asari “Al- Unmuzaj fin nahv” bo‘lib, u 3 bobdan iborat. Ism, Fe‘l, Harf boblari va har bir bob fasllarga ajratiladi, bu bilan arab nahvi dunyosiga kata bir yangilik olib keldi. Zamondoshlarining asarlaridan farqli o‘laroq arab grammatikasini boblarga ajratgan edi. Bu asarning har bir bo‘limda ham sintaksis ham morfologiya masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada biz Ism so‘z turkumiga kiruvchi ikkilik son kategoriyalar xususidagi fikrlarni ko‘rib chiqamiz. Arab tilida ism so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar uch grammatik son kategoriyasiga bo‘linadi. Birlik, ikkilik va ko‘plikdir. Zamaxshariy ko‘plikni quyidagicha ta‘riflaydi:

لمعنى الجمع ونون والمجموع على ضربين : مصحح وهو ما لحقت آخره واو مضموم ما قبلها أو ياء مكسور ما قبلها مفتوحة عوضا عن الحركة والتنوين في المذكر ، كمسلمون ومسلمين

Ma‘nosi: ko‘plik ikki xil bo‘ladi: to‘g‘ri, muzakkarda ko‘plik ma‘nosi uchun uning oxiridan oldingisi dommali vov yoki kasrali yoy v undan keyingisi harakat va tanvinning o‘rniga fathali nun bo‘ladi. Muslulmonlar, musulmonlarning.

Izoh: arab tilida so‘zlarda ko‘plik ikki xil usulda hosil qilinadi.To‘g‘ri va siniq. To‘g‘ri ko‘plik yasashda ismning oxiriga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda birligi o‘zgarishsiz qoldiriladi. Muzakkar jinsdagi to‘g‘ri ko‘plikni yasashda odamni va uni kasb korini bildiradigan

so‘zlardan, ta marbuta bilan tugamagan hamda oxirida ikkilik qo‘shimchasi bo‘lgan so‘zlarda oqali hosil qilinadi. Muzakkar jinsdagi odamni, uning kasb korini, mansab, qarindoshlik kabi ma‘nolarni bildirgan so‘zlarda oxiridagi tanvinning o‘rniga –una rof holati uchun va –ina jar va nasb holatlari uchun ushbu qo‘shimchalarni qo‘shish orqali hosil qilinadi. Al artikli olganda kelishik(holat) qo‘shimchalari o‘zgaradi.

ويختص ذلك بمن ي والتاء في المؤنث وتكون مضمومة في الرفع ومكسورة في النصب والجر . لو لـ كمسلمات وهنات

Ma‘nosi: muannasda alif va dommali ta rof holati uchun va nasb va jar holati uchun kasrali bo‘ladi. Hudduki; muslimaat va hindaat kabi.

Izoh: Muannas jinsdagi to‘g‘ri ko‘plikni yasashda odamni va uni kasb korini bildiradigan so‘zlardan, ta marbuta bilan tugagan holda ta marbuta ta mamdudaga o‘zgaradi hamda oxirida ikkilik qo‘shimchasi bo‘lgan so‘zlarda oqali hosil qilinadi. Muannas jinsdagi odamni, uning kasb- korini, mansab, qarindoshlik kabi ma‘nolarni bildirgan so‘zlarda oxiridagi tanvinning o‘rniga –atun rof holati uchun va –atin jar va nasb holatlari uchun ushbu qo‘shimchalarni qo‘shish orqali hosil qilinadi .al artiklini olganda tanvin tushib qoladi ya‘ni –ati, -atu qo‘shiladi. Ushbu qo‘shimchalarni qo‘shish orqali ayrim jonsiz predmet, his tuyg‘u nomlarini ifodalaydigan so‘zlarning ko‘pligi hamda odamni bildirmaydigan ayrim muzakkar ko‘pliklarni ham hosil qilish mumkin.

مكسور. وهو ما يتكسر فيه بناء الواحد ، كرجال والفران ويعم ذوي العلم وغيرهم

Ma‘nosi: Siniq ko‘plik. U bir qurilishda hosil qilinadi, misol:erkaklar, ayollar kabi. Shu va ulardan boshqa ilmlarni qamrab oladi

Izoh: siniq ko‘plik o‘zakni tashkil qiluvchi undoshlar orasida unilarning o‘zgarishi, noo‘zak undoshlarning kirishi, birlik sondagi shakli boshqa shaklga ki o‘tishi hisoblanadi. Uning shakllari turlicha. U har bir so‘zning o‘ziga xos bo‘ladi, va buni lug‘at yordamida aniqlanadi. Muayyan qolipi yo‘q.

. والمذكر والمؤنث من المصحح يسوى فيهما بين لفظي الجر والنصب ، تقول : رأيت المسلمين والمسلمات ومررت بالمسلمين والمسلمات

Ma‘nosi: muzakkar va muannas to‘g‘ri ko‘pligi lafzi jar va mansubda tenglashadi. Aytasan: musulmon erkak va muslima ayollarni ko‘rdim, musulmon erkaklar va muslima ayollarni uchratdim.

Izoh: to‘g‘ri muannas hamda ,muzakkar ko‘plik ismlarda nasb va jar holatlari bir xil bo‘ladi. Ya‘ni – iyna va –atin,ati qo‘shimchalari bilan ifodalanadi.

. والجمع المصحح مذكوره ومؤنثه للقلّة ، وما كان من المكسر على أفضل و افعال والقبيلة وافطة فهو جمع القلة وما عدا ذلك فهو جمع كثرة

Ma‘nosi: kam sonli muannas va muzakkar otlarning ko‘pligini ifodalash to‘g‘ri ko‘plik kabi bo‘ladi. kam sonli otlarsiniq ko‘pligi aful, afaal va afil va falatun vaznida bo‘ladi. Va shunga o‘xshash boshqalari ko‘plik(son)ni ifodalovchi ko‘plikdir.

Izoh: arab tilida kamroq uchraydigan boshqa vazndagi ko‘plik ham uchraydi.ular tanvin qo‘shimchasi bilan tugaydigan ko‘pliklar, tanvin bilan tugamaydigan vazndagi ko‘pliklar hamda alif yoki alif maqsura bilan tuagydigan ko‘pliklar kabilar hamda keluishikda turlanganiga hamturli xil qo‘shimcha qabul qiladi.shuningg uchun siniq ko‘plikni lug‘at bilan o‘rganish maqsadga muvofiq.

وما جمع بالألف والتاء من العلة صحيحة العين فالإسم منه متحرك العين ، نحو : تمرات : والصفة مبقاة العين على سكونها ، نحو ضخمات . ولما معتلها فعلى السكون ، كبيضات وجوزات

Ma‘nosi: alif va ta bilan ko‘pligi hosil qilinadigan o‘rta o‘zagi sog‘lom harakatli harf bo‘lsa faalatun vaznida hosil qilinadi.misol :tamarat , agar o‘rta o‘zagi sukunli bo‘lsa

Izoh:

. وفواعل يجمع عليه فاعل إذا كان اسما ، نحو : كواهل ، أو صفة إذا كانت بمعنى فاعلة ، نحو : حوائض وطوالي وفاعلة لسما لو صفة ، نحو : كواثب وضوارب . وقد شدّ ، نحو : فوارس

Ma'nosi: failun vaznidagi so'z ism bo'lsa favailu vaznida ko'plik yasaladi, masalan: kavahilu, yoki agar failatun vaznida sifat bo'lsa, misol: havaidu, tovaliquva failatun vaznidagi ism yoki sifat bo'lsa, misol: kavasib, dovaribu. Va adashgan: favaris

Izoh: siniq ko'plikni malum qoidaga bo'ysunmaydi degan bo'lsakda, ayrim bir xil vazndagi so'zlarning ko'pligi bir xil vaznda hosil qilinadi, misol uchun failun hamda failatun vaznidagi so'zlar ko'pligi favailun vaznida bo'ladi, biroq hammasi ham emas.

. ويجمع الجمع ، نحو : أكالب وأساور وأنعام ورجالات وجماليات . المعرفة والنكرة

Ma'nosi: Ko'plikning ko'pligi. Bundan tashqari siniq ko'plik vaznlari uchun "ko'plikdan ko'plik- جمع جمع" hosil qilishda formal, ya'ni shartli tartibdagi cheklovlar amal qilmaydi. Bunday shakllarning hosil bo'lishi va amal qilishi "ko'plikdan yasaluvchi ko'plik haqidagi" 425-bobda ko'rib chiqilgan (Zamaxshariy Mahmud, 2013: 200-201)

Izoh: ko'plikdagi shaxslar tomonidan qilingan ish harakatlar, ma'noviy jihatidan ko'plikni anglatuvchi so'zlarning ko'pligi ham siniq ko'plikda hosil qilinadi.

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tish lozim zamonaviy adabiyotlarda siniq ko'plikning qaysi vazndagi so'zi qaysi vaznda qay holatda mos tushishi lug'at yordamida bilinadi deyiladi biroq Zamaxshariy ism so'z turkumiga o'zi ushbu vazndagi so'zlarning vaznini keltirib o'tgan.

Xulosa Mahmud Zamaxshariyning "Al Unmuzaj fi-n-nahv" ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilgan mo'tabar asar deya ta'rif etilgan. Asar o'zining yozilish uslubi bilan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, asari da ikkilik son kategoriyasining erob holatini ham keltirib o'tadi. –ani, -yni, alifning yoyga o'zgarishi kabilar singlarlar, yani asarda ham morfologik ham sintaktik jihatlar tahlil etilgan.

Ushbu maqolada Ism so'z turkumida ikkilik son kategoriyasiga oid fikrlarning ma'lum bir qismini oldik xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu- l- Qosim Mahmud Zamaxshariy Nozik iboralar.-T: Kamalak, 1997, b28
2. Ibrohimov N, Yusupov M. Arab tili grammatikasi I jild.-Toshkent: O'zbekiston milliy ensklopedoyasi Dalat ilmiy nashriyoti, 1997, b37,38,67
3. Mahmud Az-Zamaxshariy. Al- Unmuzaj.-Toshkent: Toshkent Islom Universiteti, 2001 b24,25
4. Nosirova M. O'rta asr arab nahvidan namunalar(Mahmud Zamaxshariyning "AL- Unmuzaj fi-n-nahv"risolasi asosida)- T: ToshDShI nashriyoti, 2004, b16,18
5. Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari tarixi(arab tilshunosligi) ToshDShI- T: Semrug'-media,2011, b 22